

TALONCHILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Qutliyev Sherzod Abbos o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish”

kafedrası magistranti

E-mail: qutliyevsherzodjon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari faoliyatini takomillashtirish davlatning bugungi kundagi asosiy vazifasi ekanligi, chunki bevosita fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari va ularning qonuniylikni taminlashda ularning o'rnini beqiyos ekanligini takidlab o'tish kerak, bugungi kunda sohada amalga oshirilayotgan so'ngi o'zgarishlar va ularning jamiyatimizdagi huquqbuzarliklarni oldini olishda tutgan o'rniga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Huquq, Huquqiy madaniyat, Huquqiy ong, Qonun, Qaror, Farmon, Mahalliy hokimiyat, Huquqbuzarlik.*

IMPROVING PREVENTION OF ROBBERY CRIMES

ABSTRACT

This article is devoted to the latest changes in the field today and their role in preventing violations in our society, emphasizing that improving the activities of state law enforcement agencies is the main task of the state today, since their role in ensuring the constitutional rights and freedoms of citizens and their legitimacy is incomparable.

Keywords: *Law enforcement agencies, Law, Legal culture, Legal awareness, Law, Decision, Decree, Local government, Crime.*

KIRISH

Bugungi kundagi globallashtirish sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish masalasi yurtimiz bo'ylab dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi uchun avvalo, uning tinchligi, osoyishtaligi va qonun ustuvorligiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, jinoyatlarning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'rnini beqiyosdir hisoblanadi. So'ngi yillarda jinoyatchilikning shakllari murakkablashib, yangi ko'rinishlari

paydo bo'lmoqda. "Shu bilan birga, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi"[1]. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tubdan isloh qilishni, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion uslublardan foydalanishni talab qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga hozirgi kunda quyidagi davlat organlari kiradi.

1. Prokuratura organlari. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Prokuratura to'g'risida" gi qonunining (yangi tahriri) 2001-yil 29-avgust.

2. Adliya organlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son Farmoniga muvofiq:

3. Davlat xavfsizlik xizmati. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida" Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 15-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 29-martda ma'qullangan.

4. Milliy gvardiya. O'zbekiston Respublikasi "Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 12-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan.

5. Davlat bojxona xizmati. O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 6-sentabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 27-sentabrda ma'qullangan.

6. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydagi "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5059-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti. O'zbekiston Respublikasi "Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son.

8. Ichki ishlar organlari. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlar to'g'risida" qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan.

Ushbu huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari esa jamiyatdagi jinoyatlarni oldini olish va aholi orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni ischillik bilan amalga oshirish hamda “Ularning asosiy vazifalari tarkibiga quydagilarni kiritish mumkin masalan, qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta’minlash, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish” [2:123-128] bilan keng qamrovda shug‘ullanib kelmoqda. Umuman olganda jinoyat o‘zi nima va uning vududga kelish sabablari va unga yechimlar masalasini ko‘rib o‘tamiz.

Jinoyatchilik – bu jamiyatda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning yig‘indisi bo‘lib, u jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Jinoyatchilik jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib uning asosiy sabablari asosan ishsizlik, oilaviy muammolar, kambag‘allik va huquqiy savodxonlikning pastligi kabi omillar bugungi kunda aksar jinoyatchilikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lib kelmoqda. jamiyat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda esa eng muhim yo‘nalishlardan biri — bu jinoyatlarning oldini olish, va profilaktika tizimini rivojlantirishdir. Chunki jinoyat sodir etilgandan keyin uni fosh etish va jazolashdan ko‘ra, uni oldindan bartaraf eta olish ancha samarali usuldir. Bugungi kunda jamiyat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolarning tinch hayot kechirishini kafolatlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jinoyatlarni oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Chunki jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jazolash bilan emas, balki uning ildiz sabablarini aniqlash va bartaraf etish orqali samarali bo‘ladi. Avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida profilaktika tizimini kuchaytirish zarur. Buning uchun hududlarda ijtimoiy muhitni o‘rganish, aholi muammolarini aniqlash va ularni o‘z vaqtida hal etish muhim sanaladi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu borada esa ta’lim muassasalari, mahalla va oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ijobiy natijalar beradi albatta . Undan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini isloh qilishda jumladan

Birinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada samarali qiladi. Raqamli tizimlar yordamida jinoyatlarni tezkor aniqlash, tahlil qilish va oldini olish imkoniyatlari kengayadi. Masalan, videokuzatuv tizimlari, ma’lumotlar bazalari va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar orqali jinoyatchilik darajasini pasaytirish mumkin.

Ikkinchidan, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish muhim omillardan biridir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari nafaqat qonunlarni yaxshi bilishi, balki fuqarolar bilan muloqot qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, ularning halolligi va mas’uliyati jamiyat ishonchini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Fuqarolar jinoyatchilikka qarshi kurashda faqat kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishi kerakligi kabi jarayonlar esa “mahalla–profilaktika inspektori–fuqaro” hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Aholining huquqiy madaniyatini oshirish orqali jinoyatlarning oldini olish mumkin. Jinoyatlarni oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Profilaktika, zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlik ushbu tizimning asosiy ustunlari hisoblanadi. Shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jinoyatlarni oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat oldida turgan muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish orqali jinoyatchilikning oldini olish tizimini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jinoyatlarning oldini olish, avvalo, ularning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ko‘pincha jinoyatlar ishsizlik, ijtimoiy muammolar, oilaviy nizolar, huquqiy savodsizlik kabi omillar natijasida yuzaga keladi. Shu sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar faqat jinoyat sodir etilgandan keyin choralar ko‘rish bilan cheklanib qolmasdan, balki profilaktik ishlarni tizimli ravishda olib borishi lozim. va maqsadli islohotlar esa bu boradagi ishlarni tez va samarali bosqichga olib chiqadi. “O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ham “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanda chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da bu borada amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida “Mamlakatimizda demokratik yangilashning bugungi bosqichidagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirishda iboratdir”[3] deb takidlab o‘tadilar.

XULOSA

Profilaktika inspektorlari faoliyatini kuchaytirish, aholi bilan muntazam muloqot qilish, muammoli oilalar va xavf guruhidagi shaxslar bilan individual ishlash bu

borada muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish huquqni muhofaza qiluvchi organlar samaradorligini oshiradi. Elektron ma'lumotlar bazalari, videokuzatuv tizimlari, raqamli monitoring vositalari orqali jinoyatlarni erta aniqlash va oldini olish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa inson omilini kamaytirib, tezkorlik va aniqlikni oshiradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligi ham muhim omillardan biridir. Ular nafaqat qonunchilikni mukammal bilishi, balki psixologik tayyorgarlikka, fuqarolar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Aholining ishonchini qozonish esa jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi. Chunki ishonch bo'lmagan joyda hamkorlik ham samarali bo'lmaydi. Shuningdek, jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlash jinoyatlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Mahalla institutlari, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali keng qamrovli profilaktik tizimni shakllantirish mumkin. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali jinoyatchilik darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017-yildagi PQ-2833-son Qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-3141186?ONDATE=06.02.2024>
2. Davronov, Ma'rufjon. (2023). Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalari va jamiyatimizda tutgan o'rni. Ilmiy amaliy konferensiya, 123-128 bet
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi". <https://lex.uz/docs/-2780400>